Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	



FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI

Zakirova Oisha Vohid qizi

f.f.f.d., dotsent

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

“PR va menejment” fakulteti dekani

E-mail: oisha993wc@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik jurnalistikasining gender tenglikni ta'minlashdagi o'rni, ta'siri va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi zamonda blogerlar, faol fuqarolar, nodavlat media platformalar va onlayn jamoalar jamiyatdagi gender muammolarni kun tartibiga olib chiqishda muhim kuchga aylanmoqda. Fuqarolik jurnalistikasi an'anaviy ommaviy axborot vositalari zimmasiga tushadigan vazifalarni to'ldirib, ayollar ovozi eshittirish, zo'ravonlik, kamsitilish, teng imkoniyatlar, siyosiy va iqtisodiy faollik bilan bog'liq masalalarni yoritishga xizmat qiladi. Tadqiqotda misollar tahlili, kontent-tahlil, mediatisimlar taqqoslovi kabi uslublar asosida fuqarolik jurnalistikasining ijtimoiy-gender transformatsiyaga ta'siri o'rganiladi. Qayd etilishicha, fuqarolik jurnalistikasining samaradorligi faqat axborot tarqatishda emas, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, inson huquqlarini himoya qilish va gender adolatiga erishishga qaratilgan amaliy harakatlarni rag'batlantirishda ham namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jurnalistikasi, gender tenglik, ayollar huquqlari, mediamaydon, blogerlik, ijtimoiy adolat, onlayn faollik, feminizm, raqamli media, jamoatchilik fikri.

Abstract. This article examines the role of citizen journalism in promoting gender equality and social justice within the modern media landscape. With the rapid rise of digital technologies, bloggers, independent media platforms, and online communities have emerged as powerful actors in raising awareness of issues related to women's rights, gender-based violence, discrimination, and equal opportunities. Citizen journalism complements traditional media by creating alternative channels that amplify women's voices and make gender-related issues more visible in public discourse. The study employs case analysis, content analysis, and comparative media system approaches to explore how citizen journalism contributes to socio-gender transformation. The findings indicate that the effectiveness of citizen journalism lies not only in disseminating information but also in shaping public opinion, mobilizing communities, and fostering advocacy efforts aimed at protecting human rights and achieving gender justice.

Key words: citizen journalism, gender equality, women's rights, media space, blogging, social justice, online activism, feminism, digital media, public opinion.

Аннотация. В данной статье анализируется роль гражданской журналистики в обеспечении гендерного равенства и социальной справедливости в современном информационном пространстве. Развитие цифровых технологий способствует усилению влияния блогеров, независимых медиаплатформ и онлайн-сообществ, которые активно поднимают вопросы прав женщин, гендерного насилия, дискриминации и равных возможностей. Гражданская журналистика дополняет функции традиционных СМИ, создавая новые каналы для выражения общественного мнения и усиления женского голоса. В исследовании применяются методы анализа кейсов, контент-анализа и сравнительного изучения медиасистем для определения влияния гражданской журналистики на социально-гендерные трансформации. Результаты показывают, что эффективность гражданской журналистики проявляется не только в распространении информации, но и в формировании массового сознания, мобилизации общества и продвижении практик защиты прав человека и гендерной справедливости.

Ключевые слова: гражданская журналистика, гендерное равенство, права женщин, медиaprостранство, блогинг, социальная справедливость, онлайн-активизм, феминизм, цифровые медиа, общественное мнение.

KIRISH

Jamiyatda axborot tarqatish va jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonida an'anaviy jurnalistikaning o'rni katta bo'lib kelgan bo'lsa, bugungi kunda fuqarolik jurnalistikasi — ya'ni oddiy fuqarolarning axborotni mustaqil yoritishi, tahlil qilishi va tarqatishi orqali jamoat fikriga ta'sir o'tkazishi — dolzarb masalaga aylandi. Fuqarolik



jurnalistikasi axborot maydonidagi markazlashuvni kamaytirish, ko'p ovozlilikni ta'minlash, ijtimoiy adolat va shaffoflikni kuchaytirishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi¹.

Fuqarolik jurnalistikasining gender muvozanati nuqtayi nazaridan ahamiyati shundaki, u an'anaviy OAVda ko'p hollarda yetarlicha aks etmagan ayollar ovozini eshitish, ularning ijtimoiy masalalardagi pozitsiyasini yoritish va ta'lim, tibbiyot, mehnat, huquq kabi sohalarida yuzaga kelayotgan tengsizliklarga e'tibor qaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, fuqarolik jurnalistikasida ham gender muvozanatini ta'minlashga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilishi zarur. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda faollik ko'rsatayotgan blogerlar va fuqarolik muxbirlari orasida ayollar ulushini oshirish, gender stereotiplarini bartaraf etish muhim vazifalardan hisoblanadi¹.

Bunda asosiy masalalardan biri — media savodxonlik darajasini yuksaltirish, gender muammolarini anglash madaniyatini shakllantirish va onlayn maydonda sog'lom muloqot muhitini qo'llab-quvvatlashdir. Masalan, ayollar tomonidan bildirilgan ijtimoiy-tanqidiy fikrlarga nisbatan ayrim hollarda salbiy munosabat kuzatilishi mumkin, bu esa ularning onlayn ishtirokini cheklab qo'yishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Shu bois, qo'llab-quvvatlovchi va hurmatga asoslangan muhitni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi².

Ayollar dunyo aholisining deyarli yarmini tashkil etadi. Ammo tahririyatlar tuzilmasi yoki yangiliklar reportajlariga nazar tashlanganda, bu ko'rsatkich har doim ham yetarlicha aks etmasligi mumkin. Axloqiy jurnalistika insonparvarlikka asoslanadi, shaffoflikka tayanadi va mas'uliyatli faoliyatni rag'batlantiradi. Shu ma'noda, gender masalalari tahririyat amaliyotida adolatli va nozik tarzda inobatga olinishi haqiqiy axloqiy jurnalistikaning muhim sharti hisoblanadi. Bu ishga qabul qilish, ishda qoldirish, lavozimga ko'tarish yoki tayyorlanayotgan materiallar mazmunida namoyon bo'lishi mumkin.

Gender masalasi faqat ayollargagina tegishli emas. Barcha uchun zararli bo'lgan stereotiplar, qoliplar va g'arazlardan voz kechish jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Muvozanat va kontekstga tayangan yondashuv orqali biz hammamiz yutamiz, an'anaviy tarzda yetarlicha eshitilmagan guruhlar fikri va tajribasini kuchaytirish esa umumiy ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda fuqarolik jurnalistikasi raqamli platformalar orqali oddiy fuqarolarning axborot yaratish va tarqatishdagi ishtiroki sifatida talqin etiladi (Gillmor, 2006; Allan, 2013). Tadqiqotchilar bu jarayonning demokratik salohiyatini ta'kidlab, ayniqsa ayollar va marginal guruhlar uchun ovoz beruvchi maydon sifatida baholaydilar (Rodriguez, 2011).

Gender jihatdan olib borilgan izlanishlarda ijtimoiy tarmoqlar ayollarning jamoat diskursidagi faolligini oshirishi bilan birga, onlayn zo'ravonlik va diskriminatsiya xavfini ham kuchaytirishi qayd etiladi (Jane, 2017; Megarry, 2014). Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida esa fuqarolik jurnalistikasi gender tengligini targ'ib qilish va ayollar huquqlarini yoritishda muhim vosita ekani ko'rsatilgan (UNESCO, 2020; UN Women, 2019).

Shuningdek, Yevropa va AQSh tajribasida ayollar boshchiligidagi bloglar va raqamli loyihalar gender stereotiplarini kamaytirish va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qilayotgani ta'kidlanadi (Hermida, 2015; Couldry, 2010).

Umuman olganda, xorijiy tadqiqotlar fuqarolik jurnalistikasini gender tenglikni rivojlantirish uchun samarali platforma sifatida baholagan holda, uni xavfsizlik, etik me'yorlar va institutsional qo'llab-quvvatlash bilan mustahkamlash zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda fuqarolik jurnalistikasining gender tenglikni ta'minlashdagi o'rni va ijtimoiy ta'sirini aniqlash maqsadida sifatli tadqiqot yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida xorijiy ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalardagi materiallar asosida kontent-tahlil, gender masalalarini yoritishga doir muayyan holatlarni o'rganish uchun keys tahlili, shuningdek, turli mamlakatlar media tajribalarini solishtirishga qaratilgan taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi. Bundan tashqari, UNESCO, GMMP va ICFJ kabi xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida ikkilamchi ma'lumotlar tahlili amalga oshirilib, fuqarolik jurnalistikasining jamoatchilik fikrini shakllantirish va ijtimoiy-gender transformatsiyaga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2015-yilda Global OAV monitoring loyihasi "OAVda ayollar va erkaklar o'rtasida tenglikka erishish borasidagi ilgarilash deyarli to'xtagan", deb ogohlantirgan edi. GMMP har besh yilda bir kunlik tadqiqot o'tkazadi. So'nggi tadqiqotda tahlil qilingan 114 ta davlatda ayollar gazetalar, televideniye va radio yangiliklarida

1 Gillmor, D. (2004). *We the Media: Grassroots Journalism by the People, for the People*. O'Reilly Media.

2 Holmumammedova, F. (2020). "O'zbekiston televideniyesida ayollar obrazining yoritilishi". // "Media va gender masalalari", Toshkent.



eshitiladigan, ko'riladigan yoki o'qiladigan shaxslarning atigi 24 foizini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2010-yildan beri o'zgarmagan.

Internetda esa holat deyarli shunga yaqin: ayollar onlayn yangiliklar va OAV tvitlaridagi shaxslarning 26 foizini tashkil qilgan. Dunyo miqyosida olib qaraganda, bugun BBCning tashqi manbalar siyosati shundayki, kamida 50 foiz mutaxassislar ayollardan tashkil topishi kafolatlanadi va bu o'z-o'zini nazorat qilish orqali ta'minlanadi. Polshadagi Newsmavens butun Yevropadagi yangiliklarni jamlab, ularni ayol jurnalistlar nuqtayi nazaridan qayta tahlil qiladi.

2017-yil oxirida Wall Street Journal gender notengligini kamaytirishga qaratilgan choralar ko'rilishini e'lon qildi. Bir necha yil oldin Bloomberg strategiyani ishga tushirdi. U hozirda oilaga yo'naltirilgan siyosatni, mentorlik tizimini, turli sohalardagi ayol rahbarlar uchun OAV ta'lim dasturini hamda 100 dan ortiq kompaniyalarda gender tengligini baholaydigan indeksni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, ushbu sa'y-harakatlarga qaramasdan, ayrim hollarda an'anaviy stereotiplar saqlanib qolmoqda — ko'pincha ayollarning qobiliyati va yutuqlariga yetarlicha e'tibor qaratish o'rniga, tashqi ko'rinishi yoki shaxsiy aloqalariga urg'u beriladi. Bu, ayniqsa, erkaklar ustun bo'lgan sohalarda yuqori lavozimlarni egallagan ayollarga nisbatan ko'proq kuzatiladi.

2015-yil avgustda Associated Press agentligi Misrda "Al Jazeera" jurnalistlariga qarshi sud jarayoni haqidagi maqolaga bog'liq tvitda shunday deb yozgan edi: "Aktyorning xotini Amal Kluni Misrda ekstremistlar bilan aloqada, deb ayblanayotgan 'Al Jazeera' jurnalisti manfaatlarini himoya qilmoqda." Bu tvit keyinchalik o'chirildi, ammo ushbu holat dunyoning eng muvaffaqiyatli inson huquqlari bo'yicha xalqaro advokatlaridan biriga uning kasbiy faoliyatidan ko'ra, shaxsiy munosabati orqali e'tibor qaratilganini ko'rsatib bergan edi.

2023-yil yanvarda AQSh tarixidagi eng yuqori lavozimda saylangan ayol — Nensi Pelosi yana Qonunchilik palatasi spikeri lavozimiga qaytdi. New York Times Twitter'da quyidagi sarlavha bilan rasm joyladi: "Nensi Pelosi yorqin gulg'un libosda marmar minbarga ko'tarildi." Bu tvit keyinchalik o'chirildi, gazetaning o'zi esa uni "noto'g'ri shaklda bayon etilgan", deb atadi. Bu holat faqat tashqi ko'rinish yoki aloqalar masalasi emas, balki ayrim ayollarning yutuqlari go'yo me'yordan chetga chiqqan holat sifatida talqin qilinishini ham ko'rsatadi.

Ko'pincha gender nuqtayi nazaridan kamsituvchi iboralarga duch kelinadi, masalan: "isteriyaga berilgan", "befarq", "hukmron", "noluvchi" va hokazo. Rangi bo'yicha kamsitilgan ayollar yoki boshqa cheklangan jamoalarga mansub ayollar uchun bunday holat yanada sezilarli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, stereotipik til ba'zan erkaklarga nisbatan ham qo'llanilib, umumiy ijtimoiy tasavvurlarni mustahkamlash nuqtayi nazaridan salbiy oqibatlariga olib keladi, ayniqsa, turli irqiy guruhlariga mansub erkaklar uchun.

Bunday til, yoriqlar, qolip va stereotiplarga tayanib yozish jurnalistika sifati uchun jiddiy chaqiriq hisoblanadi va ayrim hollarda jamoatchilik qabul qilishi hamda unda ishtirok etayotgan shaxslarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu, ayniqsa, gender zo'ravonligi mavzusi yoritilganda, alohida ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy axborot vositalari ayrim hollarda voqeani go'yo jabrlanuvchi aybdorga o'xshash tarzda aks ettirishi mumkin. Jabrlanuvchilarning shaxsiyati oshkor etiladi, kontekst, zo'ravonlik darajasi va ko'lami yetarlicha inobatga olinmasdan, ulardan hisob so'raladi. Zo'ravonlar esa ba'zan "maxluq", deb tavsiflanib, go'yo ularning harakatlari ongli qaror emas, balki tabiiy holat sifatida taqdim etiladi. Zo'ravonlik o'zaro rozilikdagi jinsiy munosabat sifatida ko'rsatilishi mumkin, aslida esa bu hokimiyatdan noo'rin foydalanish ekani ta'kidlanishi zarur.

Ko'pincha jabrlanuvchilardan nima uchun yillar davomida sukut saqlagani haqida savollar beriladi, ular o'z tarixini baham ko'rishga jur'at etganda ham shubha bilan qaraladi va obyekt sifatida qabul qilinadi. Shu bois, jurnalistlar uchun bunday hassos va dolzarb mavzularni, jumladan gender zo'ravonligini, axloqiy va mas'uliyatli tarzda yoritish ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhimdir.

Agar biz OAVda ayollar va ular uchun muhim bo'lgan masalalar qanday yoritilishini takomillashtirishni istasak, u holda Yevropada va Shimoliy Amerikadagi tahririyatlar tuzilmasini hamda media industriyasida shakllangan ongli yoki ongsiz, ochiq yoki yashirin g'arazlarni chuqur tahlil qilish lozim. Jurnalistika sohasi uzoq vaqt davomida muayyan ijtimoiy guruhlar tomonidan boshqarib kelingan bo'lsa-da, bugungi kunda uni yanada inklyuziv qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Ayollar ko'pincha o'zlari uchun ilhom bo'ladigan namuna va qo'llab-quvvatlovga muhtoj bo'ladilar. Shu bois, institutsional qo'llab-quvvatlash va teng imkoniyatlar yaratish orqali "shisha shift"ni bartaraf etish, sohaga yangi avlod ayol mutaxassislarining kirib kelishini rag'batlantirish mumkin. Ana shunda taraqqiyot zanjiri mustahkamlanadi va jurnalistika sohasida barqaror ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin bo'ladi.

Tahririyatlarda genderning rolini tushunish — bu jurnalistikada ayollarning yagona roli "ayollar uchun, ayollar haqida" yozishdan boshqa vazifalarga ham haqli ekanligini anglashni o'z ichiga oladi. Ayollar faqat "ayol tafti" bilan yozadi, degan tasavvurdan ular erkaklar kabi "neytral" yangiliklarni ham yoza olishini tan olishgacha bo'lgan evolyutsiya kuzatildi.

Ayollar uchun mo'ljallangan sahifalar, jurnallar yoki ruknlar ko'p vaqt "kasbiy getto" sifatida qaralgan bo'lsa-da, ular ayollar ovozini kuchaytirish va axloqiy jurnalistikani rivojlantirishda muhim maydon sifatida



baholanadi. Tahririyatlarda gender avval dichotomiyada — ya'ni erkak va ayol manfaatlarini qarama-qarshi qo'yilgan holda — tushuntirilgan, keyinchalik esa "gender ahamiyatsiz" degan yondashuvga o'tilgan. Hozirgi kunda esa genderni sezgir va inkluziv yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Feminist olimlar ta'kidlashicha, uzoq vaqt davomida erkaklar o'z maqomi, ishi va maoshini himoya qilishga intilgan hamda jurnalistika "macho" qadriyatlarini bilan shakllangan muhitni aks ettirgan. Bunday madaniyat ayollar, ayniqsa onalar uchun qiyin shart-sharoitlar yuzaga keltirgan: uzoq, noqonuniy ish soatlari va bola parvarishi uchun yetarli sharoitning yo'qligi kabi holatlar kuzatilgan. Shu bilan birga, bu yo'nalishda islohotlar amalga oshirilib, teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlar kuchayib bormoqda.

YUNESKO ko'magida Xalqaro jurnalistlar markazi (ICFJ) internetda ayol jurnalistlarga nisbatan zo'ravonlik haqida ilk global tadqiqotni e'lon qildi. Unda xavotirli tendensiyalar hujjatlashtirilib, ushbu muammoni hal etishga doir amaliy yechimlar taklif etilgan.

The Chilling: A Global Study of Online Violence to Women Journalists — bu mavzuda hozirgacha e'lon qilingan geografik, lingvistik va etnik jihatdan eng xilma-xil tadqiqot hisoblanadi. 300 betdan iborat ushbu kitobning chop etilishi 2019-yili YUNESKO tomonidan buyurtma qilingan uch yillik tadqiqot loyihasini yakunlaydi³.

Tadqiqot ICFJning doktor Juli Posetti va Nabila Shabbir tahririda amalga oshirilgan bo'lib, dunyo bo'ylab 850 nafardan ziyod ayol jurnalistlarning fikr va tajribalariga asoslangan. Ular ICFJning tadqiqot bo'limi boshchiligidagi xalqaro tadqiqotchilar guruhi tomonidan so'rov qilingan. Tadqiqotda ishtirok etgan ayol jurnalistlar internetda zo'ravonlikning turli ko'rinishlariga duch kelganini ma'lum qilgan. Jumladan, jinsiy va jismoniy zo'ravonlik tahdidlari, haqoratli ifodalar, haqoratomuz shaxsiy xabarlar, kasbiy yoki shaxsiy sha'n-obro'siga putur yetkazish tahdidlari, raqamli xavfsizlikka hujumlar, fotosuratlar orqali haqiqatni buzib ko'rsatish va moliyaviy tahdidlar kabi holatlar qayd etilgan.

"Ledinyayushchiy krov" (The Chilling) filmi butun dunyoda ommaviy yoki davomli onlayn zo'ravonlikka duch kelayotgan ayol jurnalistlarning yuzma-yuz kelayotgan yangi muammolarini yoritadi. Shuningdek, unda dezinformatsiya va COVID-19 pandemiyasining ushbu muammoni yanada kuchaytirishi haqida so'z yuritiladi. Film, shu bilan birga, interseksional zo'ravonlik tabiatiga alohida e'tibor qaratadi, ya'ni irqchilik va din masalalari kabi omillarning ayollarga nisbatan nafrat va zo'ravonlik bilan qanday bog'liq ekanini ko'rsatiladi.

Tadqiqotda quyidagilar o'z ifodasini topgan:

- Internetdagi zo'ravonlikka javob choralarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatuvchi 35 ta asosiy xulosa;
- Xalqaro tashkilotlar, davlatlar, yirik texnologik kompaniyalar, axborot sanoati, huquqiy va sud organlari hamda fuqarolik jamiyati uchun mo'ljallangan 106 ta amaliy tavsiya;
- Internetdagi zo'ravonlikka javob choralarini ishlab chiqish uchun so'z erkinligiga hurmat asosida tuzilgan 25 bosqichli vosita;
- Jinsiy zo'ravonlikning internetdagi 10 ta global tendensiyasi tahlili;
- Tayyorlanish lozim bo'lgan 12 ta butun dunyoda tan olingan hujum turlari va usullari tasnifi;
- BMT jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'zining o'n yillik Harakat rejasini qayta ko'rib chiqar ekan, ayol jurnalistlarga nisbatan internetdagi jinsiy zo'ravonlikka qarshi kurashish uchun xalqaro huquqiy bazaga oid batafsil tahlil⁴.

2020-yilda esa global so'rovnomaning asosiy natijalari quyidagicha qayd etilgan. So'rovnomada ishtirok etgan ayollarning deyarli to'rtdan uch qismi (73%) internetda zo'ravonlikka uchraganini aytgan. So'rovda qatnashgan ayol jurnalistlar jismoniy (25%) va jinsiy zo'ravonlik (18%) tahdidlariga duch kelganini bildirgan. Har beshinchi ayol respondent (20%) internetda tarqalgan voqealar jarayonida real hayotda hujumga yoki zo'ravonlikka uchraganini ma'lum qilgan.

Internetdagi zo'ravonlikning ruhiy salomatlikka ta'siri eng ko'p qayd etilgan (26%) oqibat bo'lgan. Respondentlarning 12% zo'ravonlik oqibatlari tufayli tibbiy yoki psixologik yordam so'raganini, 11% esa shu sababdan ishda ta'tilga chiqqanini aytgan. Ayollarning deyarli yarmi (48%) majburiy shaxsiy xabarlar orqali ta'qib qilinganini bildirgan.

Ko'pchilik hollarda hujumlar kuchayishining asosiy sababi sifatida gender masalalari (47%) ko'rsatilgan, undan keyin siyosat va saylovlar (44%) hamda inson huquqlari va ijtimoiy siyosat (31%) keltirilgan. So'rovda qatnashgan ayollarning 41% internetda ularga qarshi hujumlar maqsadli tarzda tashkil etilgan dezinformatsiya kampaniyalari bilan bog'liq bo'lganini aytgan. Siyosiy shaxslar "anonim yoki noma'lum zo'ravonlar" (57%)dan keyin hujumlar va tajovuzlar manbai sifatida eng ko'p tilga olingan ikkinchi guruh bo'lgan (37%)⁵.

Facebook beshta asosiy platforma yoki ilovalar ichida ishtirokchilar tomonidan eng xavfli platforma sifatida baholangan. Facebook'ni "juda xavfli" deb atagan respondentlar soni Twitter'ga nisbatan deyarli ikki barobar

3 Jane, E. A. (2014). "Back to the kitchen, cunt": Speaking the unspeakable about online misogyny. *Continuum: Journal of Media & Cultural Studies*, 28(4), 558–570.

4 Леденящее кровь: глобальное исследование о насилии в отношении женщин-журналистов в интернете / Международный центр для журналистов.

5 Леденящее кровь: глобальное исследование о насилии в отношении женщин-журналистов в Интернете | Международный центр для журналистов.



ko'p bo'lgan. Shuningdek, Facebook bevosita holatlar haqida xabar berish darajasi bo'yicha ham yuqori ko'rsatkichni qayd etgan (39%, Twitter — 26%).

Faqat 25% respondent onlayn zo'ravonlik holatlari haqida o'z ish beruvchilariga xabar bergan. Ular olgan eng keng tarqalgan javoblar quyidagilar bo'lgan: umuman javob berilmasligi (10%) va "po'stingizni qalinlashtiring" yoki "mustahkam bo'ling" kabi maslahatlar (9%). 2% respondent esa hujumni o'zlari qanday qilib "qo'zg'atgani" haqida so'ralganini bildirgan.

Ayol jurnalistlar eng ko'p holatda (30%) ularga qarshi onlayn zo'ravonlikka javob sifatida ijtimoiy tarmoqlarda o'z-o'zini senzura qilishga majbur bo'lgan. 20% butunlay onlayn muloqotni to'xtatganini, 18% esa auditoriya bilan aloqa qilishdan vaqtincha voz kechganini bildirgan.

Internetdagi zo'ravonlik respondent ayollarning ishlash qobiliyati va mehnat samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, 11% ish faoliyatini davom ettira olmaganini aytgan, 38% ochiq ko'rinishdan voz kechgan (masalan, efirdan olib tashlashni so'ragan yoki internetda taxallus orqali faoliyat yuritgan), 4% ishdan bo'shagan, 2% esa jurnalistikadan vaqtincha yoki butunlay voz kechganini bildirgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli davrda fuqarolik jurnalistikasi jamiyatda axborot tarqatish va jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonida muhim ijtimoiy institut sifatida shakllanmoqda. Uning asosiy ustunligi — oddiy fuqarolarning mustaqil ravishda axborot yig'ish, tahlil qilish va tarqatish orqali ijtimoiy jarayonlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish imkoniyatidir. Gender tendensiyalari nuqtayi nazaridan, fuqarolik jurnalistikasi ayollar va erkaklar ovozi teng eshitishtirish hamda ularning media makondagi ishtiroki uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Biroq xalqaro va milliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, media kontentda an'anaviy gender stereotiplari ayrim hollarda fuqarolik jurnalistikasida ham namoyon bo'ladi. Bu holat media savodxonlik, gender sezgirlik va etik me'yorlarga amal qilishning dolzarbligini oshiradi. O'zbekiston sharoitida fuqarolik jurnalistikasi media sohasidagi islohotlar va raqamli texnologiyalar rivoji bilan uyg'un rivojlanmoqda. Shu bilan birga, gender tengligi masalasi milliy media makonida to'liq hal etilmagan bo'lib, ayniqsa onlayn platformalarda ayollar va erkaklar tengligini ta'minlovchi siyosatlar va kontent standartlarini ishlab chiqish zarur.

Shu bois, fuqarolik jurnalistlarini muntazam ravishda maxsus o'quv kurslarida tayyorlash, ularning gender masalalariga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish muhimdir. Bunday o'quv dasturlari quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq:

1. Gender nazariyasi va media — jamiyatdagi gender rollari, tengsizlik va media orqali ularning qayta ishlab chiqilishi jarayonlarini o'rgatish.

2. Gender sezgir kontent yaratish — axborot materiallarida stereotiplardan qochish, ayollar va erkaklar obrazini teng va obyektiv yoritish usullarini o'rgatish.

3. Media etika va javobgarlik — axborot manbalarini tekshirish, shaxsiy hayot daxlsizligini hurmat qilish va manipulyatsiyadan qochish prinsiplari bilan tanishtirish.

4. Xalqaro tajriba bilan tanishish — gender sezgir jurnalistikada qo'llanilayotgan eng yaxshi amaliy tajribalar va standartlarni o'rganish.

O'quv kurslarining muntazamligi fuqarolik jurnalistlariga o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilash va jamiyatdagi o'zgarishlarga tez moslasha olish imkonini beradi. Bu esa media makonda axborot sifatini oshirish, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va jinslar o'rtasida tenglikni ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Gillmor, D. (2004). *We the Media: Grassroots Journalism by the People, for the People*. O'Reilly Media.
- Holmuxammedova, F. (2020). "O'zbekiston televideniesida ayollar obrazining yoritilishi". // *Media va gender masalalari*, Toshkent.
- Jane, E. A. (2014). "Back to the kitchen, cunt": Speaking the unspeakable about online misogyny. *Continuum: Journal of Media & Cultural Studies*, 28(4), 558–570.
- Ledenyashcheye krov: global'noye issledovaniye o nasilii v otnoshenii zhenshchin-zhurnalystov v Internetе*. Xalqaro jurnalistlar markazi.
- Allan, S., & Thorsen, E. (2009).
- Gillmor, D. (2004). *We the Media: Grassroots Journalism by the People, for the People*. O'Reilly Media.
- Rosen, J. (2008). *The People Formerly Known as the Audience*. PressThink.
- Couldry, N., & Curran, J. (2003). *Contesting Media Power: Alternative Media in a Networked World*. Rowman & Littlefield.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>